

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

«TASDIQLAYMAN»

**Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti
direktori
X.I.Ibraimov**



«MA'QULLANDI»

**O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov**



**13.00.09 – “Ijtimoiy pedagogika” (tarbiya metodikasi yo‘nalishi
bo‘yicha)” ixtisosligidan malakaviy imtihon
D A S T U R I ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil « 31 » 10 363/4 -sonli qarori bilan
tasdiqlangan**

TOSHKENT – 2024

ANNOTATSIYA

“Ijtimoiy pedagogika” (tarbiya metodikasi yo‘nalishi bo‘yicha)” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni hamda ijtimoiy pedagogika fani hada uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid mavjud me‘yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo‘lib, pedagogik-psixologik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi - pedagogika ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar : p.f.d., prof. R.G.Safarova
p.f.d., prof. X.M.Tojiboyeva

Taqrizchi: p.f.d., prof. B.Xodjayev

Ushbu dastur institut kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 9/5 -sonli yig‘ilishida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Ijtimoiy pedagogika bo‘yicha malakaviy imtihon dasturining asosiy maqsadi talabgorlarga ushbu fanning asosiy mazmunidan xabardorlik darajalarini oshirish, ijtimoiy pedagogika bo‘yicha hosil qilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashdan iborat. Ijtimoiy pedagogika pedagogikaning muhim tarmog‘i sifatida bugungi kunda Shahsni ijtimoiylashtirish jarayoni oldiga qo‘yiladigan talablar va unga erishishning nazariy-amaliy asoslarini o‘zida mujassamlashtiradi. Unda ijtimoiy-pedagogik amaliyotning dolzarb muammolarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish nazarda tutiladi. Shahsda ijtimoiy jihatdan zarur bo‘lgan sifatlarini shakllantirish mazmuni va metodlarni tadqiq qilishga talabgorlarni yo‘naltirishdan iborat.

Ijtimoiy pedagogika fanining vazifasi ilmiy dalillar, ijtimoiy pedagogik konsepsiyalar, g‘oyalarni o‘zlashtirishi kelajakda ularga nafaqat hayotda mavjud muammolarni izohlash, tushuntirish, balki ularni istiqboldagi rivojini tahmin qilish. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlari va uning gumanistik xarakterini yoritib berish, turli toifadagi bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishning asosiy metodlari, shakllari va vositalarini tadqiq eta bilish va ulardan o‘z o‘rnida foydalana olish metodikalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotchilarda ijtimoiy pedagogik jarayonlar bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanish, ijtimoiy, metodik savodxonlik hamda talabalarda pedagogik-psixologik tayyorgalikni ta‘minlash metodikalaridan iborat.

Talabgorning “Ijtimoiy pedagogika fani” bo‘yicha o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ijtimoiy pedagogika, uning Shahs tarbiyasi va uni ijtimoiylashtirishda tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasida oliy, professional hamda xalq ta‘limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari ularning mazmun-mohiyatida: o‘quvchi va talaba ta‘lim jarayonining asosiy subyektlari ekanligi; uzluksiz ta‘lim jarayonida Shahsni ijtimoiylashtirish prinsiplari ta‘limning ustuvoligi, ta‘limning demokratlashuvi, ta‘limning ijtimoiylashuvi, ta‘limning milliy yo‘naltirilganligi, ta‘lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, har tomonlama komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash metodikalari; uzluksiz ta‘lim tizimi va turlari; maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, professional ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantiri va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘lim; fan-tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash sohasi; pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va ularning tayyorgarlik sifati, saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash jarayonining qatnashchisi.

1. Nazariy bilimlar. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari: Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat taraqqiyotining asosi; Ijtimoiy pedagogika turkum fanlari tizimidagi o‘rni; Ijtimoiy pedagogika fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari; Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlardan farqi; Ijtimoiy pedagogikaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni va roli; Jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining globallashuvi. O‘zbekistonda Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo‘lishi, shakllanishining shart-sharoitlari; Ijtimoiy pedagogikaning ilk tarixiy asoslari; Avestoda Shahs ijtimoiylashuvining dastlabki shakllari haqidagi qarashlari, Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy qarashlari; Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixiga oid metodologik yondashuvlar. O‘zbek xalq pedagogikasi va islom ta‘limotida ijtimoiy pedagogik g‘oyalari; “Qur‘oni Karim”, Hadis shariflardagi ijtimoiy pedagogik g‘oyalar, ularning o‘rni va ahamiyati; O‘zbek xalq pedagogikasida ijtimoiy pedagogik jarayonlarni rivojlanishi va bugungi kundagi ahamiyati. Sharq mutafakkirlari asarlarida Shahs ijtimoiylashuv masalalarining ifodalanishi: SHarq

Uygʻonish davr mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Maxmud Qoshgʻariy asarlarida Shahs ijtimoiylashuv masalalarini talqin etilishi; Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Xusayin Voiz Koshifiy asarlarida Shahs dunyoqarashi va ijtimoiylashish masalalari yoritilishi. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi: Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy yondashuvlar; Evropa mamlakatlari taʼlim tizimida ijtimoiy pedagogikaga oid tadqiqotlar; Rossiya pedagogikasida ijtimoiy pedagogika oid ilmiy tadqiqotlar; rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslarini, Oʻzbekiston ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixini: Ijtimoiy pedagogika tushunchasi, mustaqillik davrida Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tavsiyalari; Ijtimoiy pedagogikaning pedagogik fanlar sohasidagi tutgan oʻrni; Ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar va ularni amalga oshirish metodikasi. Taʼlim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolar: taʼlim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy pedagogik dolzarb muammolar, taʼlim-tarbiya jarayonidagi oʻquvchi-yoshlar oʻrtasida vujudga keladigan ijtimoiy-pedagogik muammolar, pedagogik va ijtimoiy-pedagogik loqaydlik, masʼuliyatsizlik eʼtiborsizlikning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yoʻllari; Zamonaviy jamiyatda Shahs tarbiyasi masalalari. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari: ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida; Odam individ va Shahs sifatida, inson Shahsining moddiyati, biologik va ijtimoiy jihatlarning uygʻunlashuvi, Shahsning tarkib topishida irsiyat, muhit va kamolot (taʼlim tarbiya), Oʻquvchi Shahsi kamolot jarayonining oʻrni va subʼorini. Ijtimoiy pedagogika fanining kategoriyalari va tamoyillari: Pedagogika va ijtimoiy pedagogika tamoyillari; Ijtimoiy-pedagogik faoliyat; Ijtimoiy taʼlim; Tarbiya va ijtimoiy tarbiya; Ijtimoiy pedagogik mexanizmlar; Ijtimoiy pedagogika fanining tamoyillari; Ijtimoiy pedagogikaning insonpavarlik, tarbiyaning tabiatga va madaniyatga uygʻunligi tamoyillari. Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiylashuv omillari va vositalari: Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni; Ijtimoiylashuv omillari va vositalari, ijtimoiylashuv agentlari va mexanizmlari.

2. Ijtimoiy pedagogikaning amaliy asoslari. Ijtimoiy tarbiya: Ijtimoiy tarbiya tushunchasi; Ijtimoiy tarbiyaning maqsad va vazifalari; Tarbiyasi qiyin yoki tarbiyasi ogʻir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni va turlari; Asotsial axloqning mohiyati va uni bartaraf etish; Ijtimoiy pedagogikaning kasbiy faoliyati: Ijtimoiy pedagog faoliyatining mazmuni; ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyat tuzilmasi; Ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy yoʻnalishlari. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda texnologiyalar: Ijtimoiy pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati, ijtimoiy pedagog faoliyatida texnologiyalarning samaradorligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat turlari; Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga koʻnikishning oʻziga xos xususiyatlari. Umumtaʼlim maktablari oʻquvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish usullari va metodlari: Umumtaʼlim maktablari oʻquvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi; Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati; Tarbiyaviy ishlar jarayonida oʻquvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish shakl, metod va vositalari. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish yuritish: Maktab yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni; Maktab yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat turlari; Umumtaʼlim maktablarining asosiy ijtimoiy vazifalari. Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat: Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni; Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga diagnostik, psixologik-profilaktik, korreksion, maslahat berish, reabilitatsiya ishlari. Oʻzbekiston oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shartlari: Oilaviy bolalar uyining maqomi, ularning tashkil etish; Oilaviy bolalar uyining maqsad va vazifalari; Bolalarni oilaga joylashtirish shakllari; Oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shakllari. Ijtimoiy

pedagogikada vasiylik va homiylik: Vasiylik va homiylik tushunchasi; Vasiylik va homiylik tarixidan; Vasiylik va homiylikning me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishi; O'zbekiston hamda chet ellarda vasiylik va homiylik. O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam tashkil etish: O'zbekistonda maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun muassasalar; Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi qoshida anomal bolalar uchun tashkil etilgan muassasalar; Anomal bolalar maxsus muassasalarga tashlash. O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida: O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish – dolzarb muammo sifatida; O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning mazmun mohiyati; O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning shakl, metod va vositalari. Ijtimoiy pedagogikada me'yordan og'ishish: Me'yordan chekinishi og'ishish tushunchasi; Me'yordan og'ishish turlari; Ijtimoiy pedagogik tashxis va uni amalga oshirish. Deviant xulq ijtimoiy pedagogik muammo sifatida: Deviyatsiya va uning turlari; Voyaga etmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi faktorlar; Deviyatsiya konsepsiyasida reabilitatsiya, profilaktika va korreksiya masalalari. Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat: O'smirlarda spirtli ichimlikka moyillikning kelib chiqish sabablari; Spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Giyohvandlik deviant xulq shakli sifatida: Giyohvandlik deviant xulq shakli sifatida; Giyohvandlikning kelib chiqish sabablari, turlari va oqibatlari; Giyohvandlikning oldini olishda reabilitatsion xizmatlar haqida. Ijtimoiy pedagogning reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi: Ijtimoiy pedagogning reabilitatsiya xizmat tushunchasi; Yordam ko'rsatishning ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik asoslari. Oilada, mahalla va ta'lim muassasasi ijtimoiy pedagogik hamkorligi: "Oila, mahalla, maktab hamkorligi markazi"ning tashkil etilishi; "Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi"ning maqsad va vazifasi; Oila, mahalla va ta'lim muassasasi ijtimoiy-pedagogik hamkorligi; Ta'lim muassasasi va oilada beriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Oila. Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari: Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari; Noto'liq oilada bola Shahsini shakllantirishning samaradorligi; Noto'liq oilada bola Shahsini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi.

13.00.09. – Ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo'yicha imtihon savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va pedagogika sohasidagi qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar tahlili (so'nggi besh yildagi qarorlar olinadi. Har bir qaror alohida savol tariqasida beriladi)
2. Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida.
3. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishiga asos bo'lgan ijtimoiy-madaniy, tarixiy shart-sharoitlar.
4. O'zbek xalqi pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning ifodalanishi.
5. SHarq mutafakkillarining pedagogik ta'limotlarida Shahsni ijtimoiylashtirish muammolarining ifodalanishi.
6. Jadid ma'rifatparvarlarning Shahs tarbiyasiga oid qarshlari va ulardan o'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda foydalanish imkoniyatlari
7. Jadid ma'rifatparvarlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari.
8. Xorijiy mamlakatlarida ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.
9. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi va asosiy tendensiyalari.
10. Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari.

11. Ijtimoiy pedagogika sohasidagi nazariy yondashuvlar va ularning ta'lim oluvchilar Shahsini ijtimoiylashtirishdagi ahamiyati.
12. Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari, prinsiplari va tamoyillari.
13. Ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuvi muhim ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida.
14. Ta'lim oluvchilar Shahsining ijtimoiylashuvi va uning asosiy shakllari.
15. Ijtimoiy tarbiya va uning asosiy vazifalari. O'zbekistonda ijtimoiy tarbiya sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
16. Ijtimoiy tarbiyada o'z echimini kutayotgan muammolar.
17. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan faoliyatlar.
18. Ijtimoiy pedagogning o'z faoliyatida qo'llaydigan texnologiyalar.
19. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy pedagog faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
20. O'quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish usullari, metodlari va texnologiyalari.
21. O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashuvida gender yondashuvning ahamiyati.
22. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirish usullari.
23. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshdagi bolalar bilan ishlash faoliyati.
24. Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
25. O'zbekistonda oilaviy bolalar uyini tashkil etish mexanizmlari.
26. Bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari ijtimoiylashtirish va rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
27. Ijtimoiy pedagogikada vasiylik va homiylik.
28. Vasiylarning bolalarni tarbiyalash sohasidagi faoliyatiga qo'yiladigan talablari.
29. Vasiylarning ijtimoiy pedagogik faoliyati yo'nalishida amalga oshiriladigan tadqiqotlar.
30. O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarga yordam beriladigan ijtimoiy-pedagogik ko'makning xarakteri.
31. Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalash sohasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar.
32. O'quvchi yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari.
33. Ijtimoiy pedagogikada me'yordan og'ishish tushunchasi va uning Shahs tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri.
34. O'quvchilar xulq-atvorining me'yordan og'ishishni bartaraf etishi yo'llari.
35. O'quvchilar xulq-atvorida me'yordan og'ishning asosiy ko'rinishlari.
36. Me'yordan og'ishish profilaktikasiga oid tadqiqotlar.
37. O'quvchilarning deviant xulqi ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi.
38. Ichkilikbozlikka moyil o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar va qo'llaniladigan pedagogik chora-tadbirlar.
39. Deviant xulqqa ega bo'lgan o'quvchilarning giyohvandlikka moyilligini aniqlashga oid pedagogik chora-tadbirlar.
40. Deviant xulqli o'quvchilarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirlar.
41. Deviant xulq profilaktikasiga oid tadqiqotlar.
42. Ijtimoiy pedagogning reabilitatsiyalashga oid faoliyati va mazkur faoliyatning modeli
43. Deviant xulqli o'quvchilarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirlar va uning samaradorligini baholash mezonlari
44. Oila, mahalla va ta'lim muassasasining o'quvchilarni ijtimoiylashtirish sohasidagi hamkorligi.

45. Oila, mahalla va ta'lim muassasasining ijtimoiy hamkorligi yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
46. Ijtimoiy pedagogikada oila, uning tiplari va turlari, oilaviy turlari. Oila tarbiyasi bolalarning ijtimoiylashtirishning muhim vositasi sifatida.
47. Oilada amalga oshiriladigan tarbiya turlari.
48. Noto'liq oilalarga xos bo'lgan ijtimoiy pedagogik muammolar.
49. Noto'liq oilalarda bolalarni tarbiyalashga qaratilgan tadqiqotlar.
50. Nosog'lom oilalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari.
51. Nosog'lom oilalar bilan ishlash yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
52. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy sotsiologiyaga oid tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati.
53. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning dolzarb muammolari.
54. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishga xizmat qiladigan muhim manbalar.
55. Ijtimoiy tarbiyaning kelib chiqishi va Avestoda ijtimoiy tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi.
56. Farobiy asarlarida ijtimoiy pedagogika oid tarbiyaga oid ta'limotlar.
57. O'quvchi va talabalarni ijtimoiylashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.
58. O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda foydalaniladigan yondashuvlar.
59. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan o'ziga xos xususiyatlari.
60. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda ota-onalar va maktab psixologining tutgan o'rni
61. O'quvchi va talabalarni ijtimoiylashtirishda ommaviy axborot vositalarining ko'rsatadigan ta'siri.
62. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda san'at, madaniyat boyliklari, kitobxonlik va sportning ahamiyati.
63. Talaba va o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda qo'llaniladigan ish turlari, jumladan mantiqiy savollar, interfaol keys-stadilardan foydalanish.
64. Shahs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon ob'ekti va sub'ekti sifatida
65. Alisher Navoiyning Shahsni ijtimoiylashtirishga oid qarashlari
66. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda mehnatsevarlikka o'rganitish va kasbga yo'naltirishning ahamiyati
67. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda muomala madaniyati va Shahslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik ahamiyati.
68. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda milliy hududiy an'analardan foydalanish imkoniyatlari.
69. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda millatlararo muloqot va tolerantlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan vositalardan foydalanish metodlari.
70. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda inklyuziv madaniyatni tutgan o'rni.
71. O'quvchi va talaba yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vositalari va metodlari.
72. Etnopedagogik vositalar yordamida o'quvchi yoshlarda gender mansublik tuyg'usini shakllantirish yo'llari.
73. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida yoshlarni ijtimoiylashtirishga oid qarashlari.
74. O'g'il va qiz bolalar orasida gender tenglikni ta'minlash asosida ularni ta'minlash metodikalari.

75. Shahslararo munosabatlarning dialektik tabiatini o'rganish ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashtirishda muhim sharti ekanligi.
76. O'quvchi va talaba yoshlarda ijtimoiylashtirish omillari.
77. Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish mexanizmlari
78. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishdagi ilg'or pedagogik tajribalarni mujassamlashtirgan pedagogik asarlar va ularda berilgan ma'lumotlarning izchilligi.
79. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda Shahsning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.
80. O'quvchi va talaba yoshlarda ijtimoiy-madaniy dunyoqarashni shakllantiruvchi hodisa sifatida.
81. O'quvchi hamda talaba yoshlarda ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish asosida ularda fidoyilik hissini rivojlantirish usullari.
82. Alisher Navoiy asarlarida mehnatning Shahsni ijtimoiylashtiruvchi mexanizm sifatida tasvirlanishi.
83. Ijtimoiy muhit va uning ta'lim oluvchilar ijtimoiylashuviga ta'siri.
84. Umuminsoniy xarakterdagi ijtimoiy madaniy tajribani o'zlashtirish metodlari.
85. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda o'qituvchi va ota-ona hamkorligining shakllari.
86. Innovatsion texnologiyalar vositasida o'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirish.
87. Ijtimoiy tarbiya Shahsning ijtimoiylashtirishning asosiy omili sifatida.
88. O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirishda muloqot va ijtimoiy hamkorlikning pedagogik ahamiyati.
89. O'quvchilarni ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi pedagogik vositalar.
90. Huquqiy bilimlarni o'zlashtirish ijtimoiylashtirishning muhim omili sifatida.
91. O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirishni ta'minlovchi zamonaviy kasblar.
92. O'quvchilar va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirishda ustoz-shogird maktablarining tutgan o'rni.
93. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining mazmuni va tuzilmasi.
94. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyasi, mazmuni va undan foydalanish shart- sharoitlari.
95. Ijtimoiy pedagogning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy tarbiyaga oid faoliyati.
96. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy tarbiya sohasida amalga oshiriladigan ishlar tizimi
97. Ijtimoiy tarbiya jarayonining sub'ektlari, ular bajaradigan funksiyalar
98. Shahsning tarkib topishida irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaning o'rni.
99. Insonning moddiyati, biologik va ijtimoiy jihatlarning uyg'unlashuvi.
100. O'quv talabalarni ijtimoiylashuvida an'ana, urf-odat va qadriyatlarining tutgan o'rni.
101. Pedagogik va ijtimoiy pedagogik loqaydlik, mas'uliyatsizlik e'tiborsizlikning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yo'llari.

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent Ozbekiston, 2020
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt

taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 48 bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Rzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 07.02.2017 yil. // №PF-4947-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet.

7. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., "Sahhof", 2023, 416 bet.

9. Ishmuhammedov R.J va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Istedod jamg'armasi - 2010 y.

10. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / – T.: Fan va texnologiya, 2010.

11. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.

12. M.Abdullaeva, Asqarova O'. M.Xayitboyev. Ta'lim tarixi -T. Muharrir. 2014.

13. Madiyarova S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y.

14. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

15. Mavlonova R., Torayeva O., Xoliqberdiyeva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.

16. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

17. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.

18. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.

19. Safarova R.G. "O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari" metodik qo'llanma [matn] tayyorlandi. "Bookmany Print". Toshkent – 2023. 70 b.

20. Safarova R.G. Pedagoglarning o'quvchi-yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari // metodik qo'llanma. Toshkent, "Tafakkur qanoti" nashriyoti 2020 yil 160 bet.

21. Tojiboeva X.M. Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. T.: TDPU, 2022-yil. 222 bet

22. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 152 b.

23. Samandar S., Bekmuhammad U. Xorazm jaded namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi. – Xorazm: "Milleniumus print", 2024. – 200 b.

24. Mavlonova R. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Istiqlof, 2009.

25. Galaguzova M.A. История социальной педагогики. – М.: Владос. 2009.

26. Vohidova N.X., Mirzaeva F.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Sano-standart

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

1. www.pedagog.uz
2. www.edu.uz
3. www.zivo.edu.uz
4. www.gov.uz
5. www.zivonet.uz